Ishlanmalar

Farmatsevtika sanoati uchun ishlanmalar:

1. Original dori preparatlari yaratildi va ularni tibbiyot amaliyotida qo‘llash uchun ruxsat olindi:

- Farmakopeya gossipoli – viruslarga qarshi preparatlarni yaratish uchun substansiya;

- «Ragosin tabletkalari 0,05 g» № 12 – virusli gepatitlar V, S, D ni davolash uchun;

- «Gozalidon tabletkalari 0,05» - xlamidiyaga qarshi preparat;

- «Megosin surtmasi 1%» - gerpesga qarshi vosita;

- «Lagoden in’eksii uchun» - qon ketishini to‘xtatuvchi preparat;

- «Timoptin in’eksiya uchun» - immunomodulyator;

- «Polijel» - UTDda ishlatish uchun gel.

Sanab o‘tilgan dori shakllarining substansiyalarini ishlab chiqarish institutning tajriba bazasida yo‘lga qo‘yilgan, ularning dorivor shakllari «Uzfarmsanoat» DAK korxonalarida chiqariladi.

2. Qo‘llashga ruxsat berilgan dori preparatlari:

- «Viproton» - yallig‘lanishga qarshi va og‘riq qoldiruvchi preparat;

- «Salgivin» - bifunksional ta’sirga ega bo‘lgan qon o‘rnini bosuvchi preparat;

- «Safinol» - bifunksional ta’sirga ega bo‘lgan qon antikoagulyanti;

- «Apikapsalvin» - yallig‘lanishga qarshi preparat;

- «Timogel» - yaralarni bitkazadigan va yallig‘lanishga qarshi vosita.

- «Rutan» – grippga qarshi preparat;

- Eritim – kamqonlikka qarshi ta’sirga ega preparat;

- GLAS – yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega bo‘lgan samarali preparat;

3. Klinik sinov bosqichidagi dori preparatlari:

- «Lagovin» – gemostatik preparat;

- «Gossitan» – grippga qarshi preparat;

- Getasan va Punitan – OITSga qarshi preparatlar;

- Providin – gipoksiyaga qarshi preparat;

- Gosfen – o‘smalarga qarshi preparat;

- Kalsitonin – gipokalsemik vosita;

- Glilagin – gemostatik vosita;

- Aflan – yallig‘lanishga qarshi nosteroid preparat;

- Kardin – hayvonlarning organidan ajratilgan regulyator peptidlar asosida yaratilgan tromb hosil bo‘lishini oldini olish uchun dori preparati;

- Glipred – prednizolonning suvda eriydigan kompleksi;

- Gemogubka – kapillyar va parenximatoz qon ketishini to‘xtatishga mo‘ljallangan kollagen asosidagi gemostatik qoplam;

- Bioplant – mikroinplantat sifatida yumshoq to‘qimalarni kattalashtirish va ularning yetishmagan o‘rnini to‘ldirishga mo‘ljallangan in’eksion preparat. Uzoq vaqt bitmagan surunkali yaralar, kuyish va xirurgik operatsiyalardan keyingi yaralar, teri qatlami va yumshoq to‘qimalarning nuqsonlarini davolashga mo‘ljallangan.

- Biokor – o‘smalarga qarshi oqsil tabiatli preparat.

4. Klinikagacha sinov bosqichidagi preparatlar:

- Vitiligo kasalligini davolash uchun nanozarrachalar (liposomalar) asosida yaratilgan liposomal dori shakli;

- oyoq kaftining anatomik-funksional holatini kompyuterda kompleks diagnostika qilish. Ushbu kompleks diabetik oyoq kafti sindromi bo‘lgan qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda strukturaviy buzilishlarni aniqlash uchun mo‘ljallangan.

- Fludigel – allergiya va zamburug‘larga qarshi gel

- Sedanil – yara bitkazuvchi kompozitsiya;

- Biomayrin – silga qarshi kombinatsiyali ta’sir ko‘rsatuvchi preparat.

2010 yili yangi dori preparatlarining bioekvivalentligi va bioxavfsizligini farmakokinetik baholash bo‘yicha akkreditiv Sinov markazi tashkil qilindi. Sinov markazi faoliyatining asosiy yo‘nalishi quyidagilardir:

1. Generik va original dori vositalarining bioekvivalentligi haqida xulosa berish.

2. Generik preparatlarning klinik farmakokinetikasi (ishlab chiqish bosqichida).

3. Yangi dori preparatlarining farmakokinetik parametrlarini o‘rganish.

Qishloq xo‘jaligi uchun ishlanmalar:

- *g‘o‘za va kuzgi tunlamlarni tutish uchun feromonli tutkichlar* – g‘o‘zaning asosiy zararkunandalari - g‘o‘za va kuzgi tunlamlarning qanchalik rivojlanishi va tarqalishini oldindan aytishda qo‘llaniladi. Institut 1997 yildan beri respublikaning paxtachilik xo‘jaliklarini g‘o‘za va kungi tunlamlar uchun feromonli tutkichlar bilan to‘liq ta’minlab kelmoqda. Har yili 1 mln.ga yaqin feromonli tutkichlar ishlab chiqariladi.

- *g‘o‘za tunlamiga qarshi “erkak vakuumi” ni yaratish yo‘li bilan kurashish usuli* - g‘o‘za tunlamiga qarshi “ erkak vakuumi” ni yaratish yo‘li bilan yangi kurash metodi yaratildi. Bu metodda insektitsidlar solingan feromonli tutkichlardan foydalanib g‘o‘za tunlami ommaviy qiriladi.

- immunoferment tahlil asosida g‘o‘zaning viltga chidamli navlarini tanlab olish uchun *jadallashtirilgan test-sistema*;

- *hujayra texnologiyalari asosida yuqori elita (sara) klassidagi urug‘lik kartoshkani ishlab chiqarish texnologiyalari.* Texnologiya hujayra texnologiyasi yordamida boshlang‘ich virusdan holi bo‘lgan kartoshka materialini *in vitro* da o‘simlik va mikrotugunak ko‘rinishida olish va tez ko‘paytirishga asoslanadi. Har yili kartoshkaning 15-20 ga yerga ekish mumkin bo‘lgan virussiz mikrotugunaklari yetishtiriladi. Olinadigan hosildorlik gektariga 20 t ni tashkil qiladigan bo‘lsa, har yili 300-400 t super superelita klassidagi urug‘lik kartoshkasini yetishtirish imkoni yaratiladi. Tog‘li rayonlarda umumiy maydoni 76,5 ga bo‘lgan yerda tajriba-ishlab chiqarish xo‘jaliklari tashkil qilinmoqda;

- *oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo‘jaligi xom ashyolaridagi geni modifikatsiyalangan organizmlarni aniqlash uchun DNK-texnologiyalar;*

- *«BION» o‘sish va hosildorlik stimulyatori* **-** bioaktiv peptidlar kompleksi, VM huzuridagi Davkimyokomissiya tomonidan qishloq xo‘jaligida qo‘llash uchun 2018 yilgacha ruxsat berilgan, samarasi bo‘yicha barcha ma’lum bo‘lgan chet el va mahalliy analoglardan ustun turadi. Stimulyator institutning tajriba bazasida ishlab chiqariladi.

- *O‘simliklarning fiziologik holatini diagnostika qilishning spektrolyuminessent metodi*. Metod o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga turli omillarning ta’sirini baholash va o‘z vaqtida agrotexnik tadbirlarni optimallashtirish va qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish choralarini ko‘rish imkonini beradi.

Xalq xo‘jaligining turli sohalari uchun ishlanmalar:

- Gel-sovun;

- F yelimi;

- Emulsion smazka.